



ANIMATSION FILMLAR ISTIQBOLLARI

“O‘zbekkino” Milliy agentligi boshchiligida poytaxtimizda “O‘zbekistonda animatsiyaning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan omillar va ularning yechimlari” mavzusida konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda bir qator o‘zbek animatsion filmlari yaratilishiga oid dolzarb mavzudagi ma‘ruzalar tinglandi.



O‘ZDSMI – O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz

O'zbekiston dalat san'at va madaniyat instituti "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasini mudiri, kinorejissyor va kinooperator Iqbol Meliqo'ziyev ham mazkur konferensiyada faol qatnashib "O'zbek milliy animatikasidagi kadrlar siyosati" mavzusida o'z ma'ruzasini taqdim etdilar. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3176 sonli qarori asosida "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilangan vazifalarga asoslanib multiplikatsion filmlarni 2018 yilda 15 ta, 2022 yildan boshlab har yili 50 tadan ishlab chiqarish belgilangan edi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 2016 yili "San'atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash" ta'lim yo'nalishi tashkil qilingani, hozirda 81 nafar talabalar 1-2-3-4 kurslarda ta'lim olishib, ularga Rossiya, Latviya, Germaniya va boshqa dunyoning ko'zga ko'ringan davlatlarining professional mutaxassislar tomonidan mahorat darslari uzluksiz o'tilib kelinayotgani bayon etildi. Shuningdek, joriy yilda Rossiya bo'lib o'tgan xalqaro festival doirasida bir nafar pedagog va to'rt nafar talabani animatsiya va multiplikatsiya yo'nalishlarida bir haftalik malakasi oshirish bo'yicha malaka oshirish kurslarida bo'lishgan. O'quv yilining boshida Fransiyalik mutaxassislar bilan mahorat darslari tashkillashtirildi. Bundan tashqari, yosh mutaxassislar Janubiy Korea Respublikasi "Dong-A" san'at va madaniyat institutida malaka oshirib qaytdilar.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz

Talabalarga amaliy darslarni yanada mukammal o'tilishi, afsonaviy "Sirli sandiq" multfilmining zamonaviylashtirilgan varianti "Zumrad va Qimmat" nomi ostida 3D, "Mo'jizaviy oshxona" kabi multfilmlarni tasvirga olish ishlari davom etmoqda. Mazkur asarlardagi milliy qahramonlarimiz obrazidagi qo'g'irchoqlar noyob xisoblanganligi uchun yaponiyalik prodysuser va rejissyor tomonidan homiylik asosida 4500 AQSH dollari qiymatidagi 8 ta qo'g'irchoq bo'limga sovg'a qilindi. Shuningdek, dolzarb masalalar o'rtaga tashlandi. Iqbol Meliqo'ziyev O'zbekiston Kino arboblari uyushmasi a'zosi bo'ldi.



**O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz**

“O'zbekistonda animatsiyaning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan omillar va ularning yechimlari” konferensiyasidan kutilayotgan natijalar talaygina. Mutaxassislarga muvaffaqiyatlar tilaymiz!

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
matbuot xizmati**